


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyatida 2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 146,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,6 % ni tashkil etdi.

### Farg'ona viloyatida yanvar-avgust holatiga ko'rsatilgan xizmatlarining hajmi va o'sish sur'atlari.




2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 814,9 mlrd. so'mga oshdi.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>8 146,0</b>	<b>99,6</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	479,6	112,9
moliyaviy xizmatlar	1 549,3	130,3
transport xizmatlari	1 579,5	93,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 513,2	97,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	205,2	93,5
savdo xizmatlari	2 708,4	97,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	206,0	84,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	268,5	89,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	137,3	86,6
ijara xizmatlari	189,8	86,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	211,8	85,7
shaxsiy xizmatlar	371,0	87,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	65,9	70,1
boshqa xizmatlar	173,7	81,8


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (130,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,9 %), savdo xizmatlari (97,5 %), hamda, transport xizmatlari (93,8 %), xizmatlari kabi xizmat turlarida qayd etildi.

### 2020-yil yanvar-avgust oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm.




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 2 708,4 mlrd. so‘m, transport xizmatlarida 1 579,5 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlarda 1 549,3 mlrd. so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 479,6 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

### **Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, 2020- yil yanvar-avgust (%)**




2020- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi Farg‘ona viloyatida 205,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo‘yicha xizmatlar 16,8 mlrd. so‘m, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar 188,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

2020-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar tarkibi  
(%) da




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (33,3 %), transport xizmatlari (19,4 %), moliyaviy xizmatlar (19,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %), shaxsiy xizmatlar (4,6 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,3 %) tashkil etadi.

### 2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %



2020- yil yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1 579,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1 513,2 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 95,8 % ni tashkil etadi.

## 2020- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (130,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (112,9 %), savdo sohasidagi xizmatlar (97,5 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (89,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.


**2020- yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>8 146,0</b>	<b>99,6</b>
Farg'ona sh.	3 966,4	107,4
Qo'qon sh.	981,3	95,7
Quvasoy sh.	139,1	92,9
Marg'ilon sh.	615,2	98,3
Oltiariq t.	246,6	93,4
Qo'shtepa t.	130,0	97,5
Bag'dod t.	148,3	92,0
Buvayda t.	189,7	83,6
Beshariq t.	147,1	89,9
Quva t.	175,0	92,5
Uchko'prik t.	208,4	92,9
Rishton t.	168,8	91,9
So'x t.	92,5	94,0
Toshloq t.	221,0	97,7
O'zbekiston t.	170,0	94,9
Farg'ona t.	183,0	86,0
Dang'ara t.	173,8	85,5
Furqat t.	80,3	89,5
Yozyovon t.	109,5	83,8



2020- yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona shaxrida (107,4 %), Marg'ilon shaxrida (98,3 %) Qo`qon shaxrida (95,7 %), va Toshloq (97,7 %) tumanida qayd etildi.

**2020- yil yanvar-avgust oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi**  
(jami hajmga nisbatan %)



2020- yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (48,7 %), Qo'qon (12,7 %) va Marg'ilon (7,6 %) shaharlarida hamda Oltiariq (3,0 %), Toshloq (2,7 %) tumanlarida qayd etildi.